

<b>№</b>	<b>MUNDARIJA</b>	
1.	ЎЗБЕКИСТОН СУФУРТА БОЗОРИДА ВОСИТАЧИЛИК ФАОЛИЯТИНИ <b>ЭКОНОМЕТРИК ТАХЛИЛ ҚИЛИШ ВА ПРОГНОЗЛАШ</b> <b>Матиязова Санобар Ражаббайовна</b>	1
2.	СУФУРТА БОЗОРИДА ИСТЕЙМОЛЧИЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ <b>Жакбаров Сардор</b>	4
3.	ТАКОФУЛ РИВОЖИННИГ ТАРИХИЙ ЖИХАТЛАРИ ВА ТАРҚАЛИШ ГЕОГРАФИЯСИ <b>Абдуллаев Равшан Вахидович, Дадабаев Умиджон Абдусамат ўғли</b>	7
4.	ЎЗБЕКИСТОНДА СУФУРТА МАҲСУЛОТИНИ СОТИШ КАНАЛЛАРИНИНГ БУГУНГИ ХОЛАТИ <b>Абдимўминова Соодат Тахиржоновна</b>	10
5.	ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ СУФУРТАЛАШДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ТАЛАБИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ <b>Нуруллаев Абдулазиз Сирожиддинович</b>	13
6.	O'ZBEKISTONDA SPORT SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING TASHKILIY- IQTISODIY JIHATLARI <b>M.N.Mamatov</b>	16
7.	SUVEREN KREDIT REYTINGNING MAMLAKAT MOLIYASIGA TA'SIRI <b>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</b>	19
8.	VENCHUR FONDLARINI TASHKIL ETISH: JARAYON VA STRATEGIYALAR <b>Talapova Nargiza Baxriddinovna</b>	21
9.	ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ БЮДЖЕТ СИЁСАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ <b>Имомов Ҳамдила Ҳамдамович</b>	24
10.	MILLIY IQTISODIYOTDA MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI SHAKLLANISHDA HUDUDLAR IQTISODIY VA INVESTITSION SALOHİYATININIG NAZARIY ASOSLARI <b>Yusupov Ruslan</b>	27
11.	LOGISTIKA VA TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINI INTEGRATSİYALASH UCHUN MOLIYAVIY BOSHQARUV STRATEGIYALARI <b>Maxmudov Samariddin Baxriddinovich</b>	31
12.	MDH MINTAQASIDA TRANSPORT SOHASIDAGI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EOII TRANSPORT INTEGRATSİYASINING TASHQI OMILLARI VA XAVFLARI <b>Xo'jayev Fazliddin Elmurodovich</b>	35
13.	COMBATTING THE SHADOW ECONOMY AS AN IMPORTANT DIRECTION OF ECONOMIC POLICY FOR AN INCLUSIVE DEMOCRATIC SOCIETY (EXPERIENCE OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES AS AN EXPAMPLE) <b>Norbaev Tura, Abduraufov Jaloliddin</b>	37
14.	EVROOSIYO IQTISODIY HAMJAMIYATI BILAN IQTISODIY HAMKORLIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI <b>Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi</b>	42
15.	AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MOLIYAVIY RISKLARINI ANIQLASH YO'LLARI <b>Raximov Abduxalil Toshbotirovich</b>	45
16.	AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING ODDIY AKSIYALARI QIYMATI BAHOLASH USULI <b>Xurramov Eshmamat Xudoyberdovich</b>	48

# O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 1 /SS: 12 (2024)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE




TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS





## AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MOLIYAVIY RISKLARINI ANIQLASH YO'LARI

Raximov Abduxalil Toshbotirovich

"Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti" tadqiqotchisi

email: [r.abduxalil@mail.ru](mailto:r.abduxalil@mail.ru)

### ARTICLE INFORMATION

Volume: 2

Issue: 1

DOI: [https://doi.org/10.55439/INS/vol1\\_iss12/234](https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss12/234)

### ABSTRACT

Ushbu maqolada korxona moliyaviy riskini baholashda miqdoriy metodlarning ahamiyati va qo'llanilishi tahlil qilingan. Miqdoriy usullar moliyaviy xavflarni baholashda aniqlikni ta'sirinib, xatarlarning kelib chiqish ehtimoli va ularning iqtisodiy natijalarga ta'sirini hisoblash imkonini beradi. SHuningdek, maqolada miqdoriy tahlillarning afzalliklari, chegaralari va ularni zamonaviy moliya boshqaruvidagi o'rni tahlil qilingan. Ushbu ish moliyaviy risklarni minimallashtirish va moliya boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha amaliy qo'llamma sifatida foydalanimli mumkin.

### KEYWORDS

*Moliyaviy risk, inflayasion risk, prosent risk, valyuta risk, soliq riski, miqdoriy usul, Z-skor modeli, stress-testing, variatsiya tahlili.*

### Kirish (Введение/Introduction)

Moliyaviy risk korxona faoliyatida erishiladigan moliyaviy natijalarining noanqligi yoki nomutanosibligi ehtimoli sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy biznes muhitida moliyaviy riskni baholash va boshqarish samarali faoliyatni ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatiga ega. Qarz majburiyatlarini qoplash, aktivlardan foydalanish samaradorligi va bozordagi o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini baholash korxona moliyaviy barqarorligi uchun zarurdir.

Ushbu maqolada moliyaviy riskni baholashning asosiy metodlari tahlil qilinadi. Qarz va kapital strukturasini tahlil qilishdan tortib, stress-testing va Z-skor modellari orqali bankrotlik xavfini baholashgacha bo'lgan usullar har tomonlama ko'rib chiqiladi. Bu metodlar korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir etuvchi xavflarni o'z vaqtida aniqlash va ularni kamaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Korxona rahbariyati uchun ushbu metodlarning ahamiyati faqat moliyaviy xavflarni tushunish bilan cheklanmaydi, balki ularni strategiyalar va qarorlar qabul qilish jarayonida inobatga olish orqali uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashdir.

### Adabiyyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy riski deyilganda, jamiyatlar tomonidan moliyaviy rejani amalga oshirishda shartlar noaniq bo'lgandagi moliyaviy faoliyatida foya va kapitalning yo'qotishlarga olib keluvchi salbiy oqibatlarni paydo bo'lishi tushiniladi. Moliyaviy risk kompaniya iqtisodiy faoliyatida tez-tez namoyon bo'ladi. U korxona kapitali, resurslari, daromadlari shakllanishi va moliyaviy natijalariga bog'liq bo'lib xamda iqtisodiy faoliyatdagi moliyaviy yo'qotishlarni sodir etishi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, risk umumiy iqtisodiy kategoriylar tizimida o'z o'miga mavjudligi uchun iqtisodiy kategoriya deb ham ta'riflanadi [1].

Moliyaviy risk korxonaning har bir yo'nalishlarida bo'ladigan jarayonlarda o'z ta'siriga ega bo'lgani sababli korxonaning xo'jalik faoliyatini ajralmas qismi hisoblandi.

Nazariy jihatdan moliyaviy risklarning namoyon bo'lishi oqibatlari ijobji (foyda) va salbiy (zarar, yo'qotishlar) bo'lishiga qaramasdan, ular hanuzgacha salbiy oqibatlar extimollik darajasi bilan tafsiflanadi. Sababi ko'p hollarda moliyaviy risk ta'siri oqibat natijasida kompaniyalarini foydasini kamayishida kapitali yo'qotiladi, bu esa, o'z navbatida bankrotlikka va faoliyatining to'la to'xtalishiga olib keladi. Xorijlik

iqtisodchi olimlardan Kovalev V.V. fikricha, moliyaviy riskni uzoq muddatli kreditlar va ssudalar bo'yicha xisoblangan foizlarni to'lash uchun ehtimollik bilan pul mablag'larni etishmasligi sifatida ta'kidlaydi [2].

Jumladan, dunyo olimlari tadqiqotiga ko'ra, kompaniya moliyaviy risklari turli tumanligi bilan bir-biridan farqlanadi va ularni effektiv boshqarish uchun ularni asosiy xususiyatlarga sinflarga ajarib ko'rsatishadilar. Moliyaviy risklarning sinflarga bu yo'l bilan ajratish ularni boshqarishda asosiy differensiya parametri sifatida namoyon bo'ladi. Moliyaviy risklar etarlicha keng ma'noda turli tumandir. Yangi turdag'i risklarning paydo bo'lishiga zamonaviy faktorlar va moliyaviy instrumentlar sabab bo'ladi[3]. SHuningdek, investision risk, xususan ushbu risk kompaniyaning investision faoliyatni amalga oshirayotgan paytida sodir bo'ladi. SHunday qilib, mazkur riskka misol sifatida real investisiya vaqtida o'z vaqtida loyihalarni yoki konstrukturlik ishlarni amalga oshiraolmasligida ko'rshimiz mumkin [4].

Xozirgi kunda inflayasion risk iqtisodiy sharoitida ushbu risk alohida ajralib turadi. Mazkur risk kompaniya moliyaviy aktivi shaklidagi kapitalning qadrsizlanishi xamda moliyaviy operasiya natijasida olinishi kutilayotgan daromadning inflayasiya sharoitida qadrsizlanishi bilan izohlanadi. Ushbu risk ma'lum davrdagina mavjud bo'lmay, domiy ravishda kompaniyaning barcha moliyaviy operasiyalariga ta'sir etadi, kompaniyaning moliyaviy menejmentda mazkur riskni alohida va doimiy ravishda e'tiborda turadi [5].

Shuningdek, prosent riski kapital bozorda prosent stavkasining (depozit yoki kredit) to'satdan o'zgarishi bilan sodir bo'ladi. Bu riskni paydo bo'lishi omillardan biri sifatida davlat tomonidan kapital bozor kon'yunkturasining davlat tomonidan o'zgartirilishi, erkin moliya mablag'larning taklif sifatida ortishi yoki kamayishi va boshqalar xisoblanadi.

Valyuta riski eksport va import iqtisodiy munosabatlarni olib boruvchi kompaniyalarda sodir bo'ladi. Valyuta riski tashqi iqtisodiy munosabatlarni ta'sirida tashkilot moliyaviy operasiyasida foydalanimadigan valyuta kursining o'zgarishi ta'sirida sodir bo'ladi. Bizga ma'lumki, o'zining xo'jalik yuritishi sharoitida korxona valyuta kursini o'zgarishi kamaytirishga nisbatan deyarli imkoniyatsiz xolda bo'ladi. SHuning uchun kursning o'zgarishi salbiy oqibatlari korxonaga to'g'ridan to'g'ri ta'sir etadi [6].

Shuningdek, soliq riski bir necha vaziyatlarda sodir bo'ladi: amaldagi soliq va yig'imalar stavkasini ortish ehtimoli; ba'zi soliq xarakteridagi to'lovlar shartlari va muddatlarining o'zgarishi; tashkilot ba'zi yo'nalishlari faoliyatida yangi soliq va yig'ilmarning kiritilishi; kompaniya xo'jalik faoliyatidagi mavjud soliq imtiyozlarini bekor qilinishi. Ushbu riskni sodir bo'lismeni oldindan aytib bo'lmaydi, shuning uchun mazkur risk kompaniya moliyaviy faoliyati natijasiga jiddiy ta'sir kiladi [7].

Jumladan, prognoz qilinmaydigan moliyaviy risk sodir bo'lismeni to'liq oldindan aytib bo'lmaydigan moliyaviy risklarni tasviflaydi. Bu risklarga misol sifatida fors-major kategoriyasidagi risklar xamda soliq riski va boshqalarni keltirish mumkin [8].

Kredit riski moliyaviy riskning tarkibiy qismidir. Kredit riski korxonani o'z vaktida va butunlay o'z qarz majburiyatlarini to'lamasligi bilan bog'liqidir. Korxonaning bu xossasini kreditni to'lash imkoniyati deb ham yuritiladi. Kreditni to'lash imkoniyati yo'qolishning so'ngi bosqichi bankrotlik riski deb ataladi, bunda korxona butunlay o'z to'lov majburiyatlarini bajara olmay qoladi. Kredit riskini baxolash metodlariga ushbu riskni diagnostikalovchi ekonometrik modellar kiradi:

Atman modeli –formula bo'lib amerikalik iqtisodchi E.Altman tomonidan taklif etilgan. U korxona bankrot bo'lishi extimolining prognozlash imkoniyatini beradi [9].

Altman bir necha yil davomidagi Amerika korxonalarini taxiliga asoslangan o'z xulosalarini chiqardi. Birjada ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar bilan bir qatorda nodavlat kompaniyalar uchun xam taxllilar o'tkazdi [10].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, moliyaviy risklarni tizimlashtirish kompaniya faoliyati uchun sodir bo'lish ehtimoli eng katta va sezilarli muhim axamiyatga ega bo'lgan riskni aniqlash, bunday tasodifiy xodisani vujudga kelishi sabablarini aniqlashda, aniklangan risk ta'siri oqibatlar darajasini o'rganishda, riskni nazorat qilish imkoniyatini taxlil qilishda, risk faktorining salbiy ta'siridan oldini olish usullarini aniqlashda va risk faktorini natijasi oqibatlarini bartaraf qilishga sarflanadigan xarajatni pasaytirishda, risk faktorii indikatorlarini tizimlashtirishda, risk bilan bog'lik holatlar, vaziyatlarni monitoring qilishda, riskni boshqarish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish uchun kerak bo'ladiqan informasion bazani yaratishda, riskni darajasini aniqlashda shuningdek, risklarni boshqarish programmasini ishlab chiqishda juda zarur va axamiyatlari hisoblanadi.

### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Mazkur maqolada uch qismdan iborat moliyaviy risklarni baxolash algoritmini ko'rib chiqgan. Birinchidan, barcha ma'lum risklarni taxil kilish va ularidan kopnaiyaning moliya-xo'jalik faoliyatiga sezilarli ta'sir etadigan eng muximlarini tanlash. Ikkinchidan, kutilayotgan xavfni miqdor, sifat nuktai-nazaridan formallashtirishni imkonini beradigan riskni xisoblash metodini aniqlash. So'ngi bosqichda korxona turli ko'rinishda rivojlangan xollarda yo'qotishlar va ularning extimollarini prognolashtirish va salbiy oqibatlarini minimallashtirish uchun boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish amalga oshirilgan.

### Tahsil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Risklarni boshqarish uchun ularni baholash zarurdir. Korxona moliyaviy riskini baholash metodlarini tasniflarga ajratamiz, ularni kamchilik va yutuq tomonlarini 1-jadval orqali ko'rib chiqamiz. Barcha metodlarni ikki katta guruhta bo'lish mumkin.

Boshqaruv jarayonida qaror qabul qilishda riskni o'rganishdagi umumiyligi princip va talqinlardan foydalanan mumkin. Bu o'rinda ikki xil yondashuv bo'lib, birinchi xolda korxona yoki tashkilot uchun nomaqbul bo'lgan tasodifiy xodisaning extimoli sifatida va ikkinchi xolda esa bu xodisaning sodir bo'lismidagi yo'qotishni tushunish nuktai nazaridan qarash mumkin. [12]

Bunda  $R$  riskning miqdoriy o'lchovi yoki qiymati yo'qotishning taqsimot qonuni bilan aniqlanadi. Umuman riskning o'lchami deyilganda odatda yo'qotishning ikki xarakteristikasi biri sodir bo'lish extimoli va yo'qotishning qiymati tushiniladi.

$P(\Delta t)$  extimollik nisbatan kamdan-kam sodir bo'ladiqan xodisaning  $\Delta t$  vaqt intervalida kuzatilishi mumkin bo'lgan riskning o'lchami(ko'rsatkichi) deb olsak, u ekologik yoki texnogen risklarni, favqulodda xolatlar sodir bo'lindagi risklarni baxolashda, bir ob'ekt uchun turli xodisalarini ta'sirini solishtirishda, bir xil sharoidagi har xil ob'ektlarni umumiyligi vazifasini(funksiyasini) o'rganishda quaylik tug'diradi. [13]

1-jadval

Korxona moliyaviy riskini baholash metodlari <sup>1</sup>		
Sinflar	YUtuq va imkoniyat	Kamchiliklar
Miqdoriy metodlar	Moliyaviy risklarni ob'ektivligi, statistik ma'lumotlar asosida riskning o'zgarish modelini tuzish.	Korxona moliyaviy risklarini sifat nuqtai nazaridan sonli formallashtirishni murakkabligi hisoblanadi
Sifat bilan bog'lik metodlar	Risklarni sifat nuqtai-nazaridan imkoniyati	Korxona moliyaviy risklarini baxolashning sub'ektivligi, xususan ekspertlar bahosining natijasi hisoblanadi

Bu kabi risklarni nisbatan xavfli xodisalar (suv toshqinlari, er qimirlashi, turli yong'inlar) sodir bo'lindagi yo'qotishning natural son (jabrlanganlar yoki nobud bo'lganlar soni) yoki ko'rilgan zarar miqdorining narxi ifodasi sifatida ham qaraladi.

Bu erda risklarni klassifikasiya qilishdagi prinsiplardan birini eslash kerak bo'ladi: risklarni xarakteriga ikkiga bo'lish mumkin, ya'ni toza va spekulyativ (ba'zi adabiyotlarda "tijorat" deb ham atalgan) risklarga ajratish mumkin. Birinchi holda riskni deyilganda "yo'qotish" tushiniladi, shu kabi hollarda risk sifatida so'nggi kutilgan natijaga nisbatan noqulay tomonga chetlanish qaraladi. Bu holda o'rtacha risk ko'rsatkichi (o'rtacha yo'qotish) haqida gapirish mumkin. [11]

Ikkinci holda iqtisodiy natija xuddi mumkin bo'lgan foyda sifatida xarakterlanadi, bu holda so'nggi iqtisodiy natija yoki foyda uchun matematik kutilma haqida gapiriladi.

Agar tasodifiy miqdor chekli yoki sanoqli sondagi qiymatlar qabul qilsa, bunday tasodifiy miqdor diskret tasodifiy miqdor deyiladi. Diskret tasodifiy miqdorni berish uchun uning taqsimot qonunini quyidagicha ko'rsatish etarli:

$X$	$x_1$	$x_2$	$\dots$	$x_n$	$\dots$
$P$	$p_1$	$p_2$	$\dots$	$p_n$	$\dots$

$X$  tasodifiy miqdorning matematik kutilishi deb,  $\sum_{i=1}^{\infty} x_i p_i$  qator yig'indisiga aytildi va  $MX$  orqali belgilanadi. Demak,  $M(X)=\sum_{i=1}^{\infty} x_i p_i$

Bu holda yo'qotishga(yoki foydaga) mos riskni qiymati  $R$  sifatida matematik kutilma qaraladi, ya'ni  $R = M(X)$

Bu erda  $R$  - riskning miqdoriy qiymati- yo'qotish yoki foydani bildiruvchi o'rtacha risk;

$p_i \cdot x_i$  qiymatli yo'qotish (foydan) sodir bo'lismeni extimoli;  $x_i$  - yo'qotish(foydan) miqdoriy qiymati yoki qiymati(iqtisodiyotda, odatda narxini ifodasi)

Odatda, iqtisodiy jarayonlarda matematik kutilma quyidagiga teng:

$$\sum_{i=1}^n x_i \cdot p_i$$

n - codir bo'lishi mumkin yo'qotishlar soni.

Agar tasodifiy miqdorning qabul qiladigan qiymatlari biror oraliqdan iborat bo'lsa, u holda bunday tasodifiy miqdor uzlusiz tipdag'i tasodifiy miqdor deyiladi.

Demak, diskret tasodifiy miqdor bir-biridan farqli alohida qiymatlarni, uzlusiz tasodifiy miqdor esa biror oraliqdag'i ixtiyoriy qiymatlarni qabul qilar ekan.

Uzlusiz tasodifiy miqdor uchun diskret tasodifiy miqdor kabi taqsimot qatorini qurib bo'lmaydi, chunki uzlusiz tasodifiy miqdor chekli yoki cheksiz oraliqning har bir qiymatini qabul qilishi mumkin va bunday qiymatlarni soni sanoqsiz. SHu sabab, uzlusiz tasodifiy miqdorni tasvirlashda va o'rganishda taqsimot hamda zichlik funksiyalaridan foydalilanadi.

$X$  tasodifiy miqdorning  $F(x)$  taqsimot funksiyasi

$\forall X \in R$  son uchun quyidagicha aniqlanadi:

$$F(x) = P\{X < x\} = P\{\omega : X(\omega) < x\}.$$

Uzlusiz tasodifiy miqdorning zichlik funksiyasi deb, shu tasodifiy miqdor taqsimot funksiyasidan olingan birinchi tartibli hosilaga aytildi.

Uzluksiz tasodifiy miqdorning taqsimot funksiyasi zichlik funksiya orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$F(x) = \int_{-\infty}^x f(t)dt.$$

$X$  uzluksiz tasodifiy miqdorning matematik kutilishi deb

$$MX = \int_{-\infty}^{+\infty} xp(x)dx$$

tenglik bilan aniqlanuvchi  $MX$  songa aytildi,  
bu erda  $p(x)$ -zichlik funksiya.

Matematik kutilma riskni hisoblashdagi eng ko'p qo'llaniladigan kattaliklardan biridir.

#### Xulosa (Заключение/Conclusion).

Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyaviy risklarini baholashda qarz va kapital strukturasini tahvil qilish metodi, xususan, Qarz/Kapital nisbati (Debt-to-Equity Ratio), korxonaning likvidlik tahvilini usulidan, naqd pul oqimi tahvil, qarz xizmatini qoplash darajasi, variasiya tahvil (Variance

Analysis) va bozor risklarini baholash, Z-skor modeli (Altman's Z-Score) va Stress-testing (Stress Testing) usullaridan foydalangan holda risklani baholash amalga oshiriladi. Xususan, korxonaning rejalahshtirilgan moliyaviy natijalari va amaliy ko'rsatkichlari o'rtaisdagi farqni tahvil qilish tasodifiy miqdorlar matematik usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. SHuningdek, qarz va kapital strukturasini tahvil qilish, moliyalashtirish strategiyasining barqarorligini baholashga yordam beradi. Likvidlik va naqd pul oqimi tahvillari, joriy majburiyatlarni qoplash qobiliyatini aniqlaydi. Foydalilik va qarz xizmatini qoplash darajasi tahvili, moliyaviy samaradorlikni o'chashga yordam beradi. Bozor xavflari va stress-testing orqali tashqi omillarning ta'siri baholanadi. Z-skor modeli va variasiya tahvili, bankrotlik xavfi va rejadan og'ishlarni aniqlash uchun ishlataladi. Ushbu usullarning integral qo'llanilishi korxona rahbariyatiga xavflarni vaqtida aniqlash, moliyaviy qarorlarni optimallashtirish va korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi. Risklarni o'z vaqtida va samarali boshqarish, uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka erishish uchun asosiy omildir.

#### References:

1. Васин С.М. Управление рисками на предприятия / С.М. Васин, В.С. Шутов. М.: КноРус, 2018. – 304 с.
2. Ковалев В.В. Финансовый менеджмент / В.В. Ковалев, В.В. Ковалев. М.: Проспект, 2017. – 508 с.
3. Воронцовский А.В. Управление рисками / А.В. Воронцовский. М.: Юрайт, 2017. – 416 с.
4. Вяткин В.Н. Риск-менеджмент / В.Н. Вяткин, В.А. Гамза, Ф.В. Маевский. М.: Юрайт, 2016. – 354 с.
5. Герасимова В.Д. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия (для бакалавров) / В.Д. Герасимова, Л.Р. Туктарова, О.А. Черняева. М.: КноРус, 2018. – 512 с.
6. Грибов В.Д. Финансовая среда и предпринимательские риски / В.Д. Грибов. М.: КноРус, 2015. – 304 с.
7. Дорман В.Н. Коммерческая организация: доходы и расходы, финансовый результат / В.Н. Дорман. М.: Юрайт, 2017. – 110 с.
8. Басовский Л.Е. Финансовый менеджмент / Л.Е. Басовский. М.:Инфра-М, 2017. – 240 с.
9. Kungratov Ilmurod Kuzibay ugli, & Abdumitalibova Rayhona. (2024). SECURING TRAVEL EXPERIENCES: THE IMPACT OF TRANSLATION ON TOURISM INSURANCE ACCESSIBILITY. Insurance Market of Uzbekistan, 1(11), 36–38.
10. Финансовый менеджмент / Под ред. А.З. Бобылевой. М.: Юрайт, 2017. – 574 с.
11. Шеремет А.Д. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия / А.Д. Шеремет. М.: Инфра-М, 2017. – 374 с.
12. Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich, & Yo'ldosheva Aziza Muzaffar qizi. (2024). Sug'urtani rivojlantirishda marketingning roli. Страховой рынок Узбекистана, 1(11), 1–3. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/208>
13. Мавлянова Юлдузхон Тургунновна. (2024). Акциядорлик жамиятларида корпоратив баҳолаш амалиётини самарали ташкил этиш механизми. Страховой рынок Узбекистана, 1(11), 30–32. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/216>
14. Jusupova Anjim Tansiqbaeva. (2024). Faktoring - kichik biznes va tadbirdorlikni rivojlantirishning muqobil asosi . Страховой рынок Узбекистана, 1(11), 33–35. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/217>